

O'zbekiston va Pokiston munosabatlari strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



Uzbekistan Respublikasi Prezidentligi
MABLOUZIZMATTI



MATBUOTXIZMATTI





Muzokaralar yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev va Bosh vazir Imron Xon O'zbekiston Respublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o'rtaida strategik sheriklik aloqalarini o'rnatish to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiyani imzoladilar.

Tashrif doirasida imzolangan 8 ta hujjat almashildi. Tranzit va savdo to'g'risidagi hamda Ishbilarmon doiralar vakillari va sayyohlik guruhlari uchun viza tartiblarini soddalashtirish to'g'risida hukumatlararo bitimlar ular orasida alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, Mudofaa vazirliklari o'rtaida harbiy ta'lif sohasida hamkorlik to'g'risida protokol, 2021-2026-yillarga mo'ljallangan Madaniy almashuv dasturi, turizm masalalari bo'yicha anglashuv memorandumi, davlat chegarasidan olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalari haqida oldindan axborot almashish to'g'risida bayonnomma, Jahon iqtisodiyoti va diplomatika universiteti bilan Pokiston diplomatik xizmat akademiyasi o'rtaida anglashuv memorandumi, O'zbekiston - Pokiston ishbilarmonlar kengashini tuzish to'g'risida bitim imzolandi.

Tashrif doirasida Hukumatlararo komissiya majlisi hamda O'zbekiston - Pokiston biznes forumida 500 million dollarlikdan ziyod shartnomalar imzolangani ma'lum qilindi.

Manba